

XIZMAT KO'RSATISHNING JAMIYAT IQTISODIYOTIDAGI O'RNI.

Jumanov Ruslanbek Bobojonovich

Xorazm viloyati Urganch Texnologiya Universiteti

"Iqtisodiyot" kofedrasasi o'qtuvchisi

Gmail: parvonaparvoz@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada Xizmat ko'rsatishning jamiyat iqtisodiyotidagi o'mi va uning muqobilligi bilan bog'liq fikir, muloxazalar hamda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, uning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarga ta'siri va o'sish bilan bog'liq asosiy omillar va muammolar keng yoritilgan.

Kalit so'z: YaIM, iqtisodiyot, xizmat ko'rsatush, bozor tizimi, tanazzul, texnologiya, kreditlash, mexanizmlar, xalqaro tashkilotlar.

Krish qism: Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi zamонавија iqtisodiy evolyutsiyaning muhim jihatni bo'lib, tashkilotlarning ishlash va ularning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini o'zgartiradi. Jahon iqtisodiyotining sanoatdan postindustrial davrga o'tishi munosabati bilan xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishda hal qiluvchi rol o'ynab, ahamiyatini oshirdi. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi- postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri milliy iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanib, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi. Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan mazkur sohaning muayyan rivojlanishi yuz beradi. Sohada bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi, takomillashgan texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining roli juda katta va dolzarbdir. Bu xususan ishlab chiqarishning murakkablashayotganligi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirilayotganligi, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining tarkibiy qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan so'ng ko'rsatiladigan xizmatlardan iborat tobora rivojlanib borayotgan tarmoqni talab qiladi. Shak-shubhasiz yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinalarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.



Xizmat

ko'rsatish


tarmog'i — bu ma'lum bir xizmatni taqdim etish uchun bir nechta obyektlarni birlashtirgan tuzilma. Masalan, bir tashkilot boshqa tashkilotga (yetkazib beruvchiga) uchinchi shaxsga (mijoz) sotishdan keyingi xizmatlarni taqdim etish uchun subpudrat shartnomasini tuzishi mumkin. Xaridor bir nechta yetkazib beruvchilardan foydalanishi

mumkin. Xuddi mana shunday, yetkazib beruvchi boshqa tarmoqlarda ham ishtirok etishi mumkin. Xizmat ko'rsatish tarmog'ining mantiqiy asosi shundaki, har bir tashkilot o'zi eng yaxshi qiladigan narsaga e'tibor qaratadi.

Xizmat ko'rsatish tarmog'ini ayrim xizmatni taqdim etish hamda umumiyliz biznes maqsadiga erishish uchun Internetda birlashtirilgan odamlar va ma'lumotlar to'plami sifatida ham aniqlash mumkin. Bu xizmat ko'rsatish tizimlarining rivojlanayotgan kengaytmasi bo'lib, korporatsiyalarga biznes manfaati uchun iste'molchi interneti yutuqlaridan foydalanish imkonini berish uchun korporativ ijtimoiy dasturiy ta'minot sifatida ham tanilgan Enterprise 2.0 texnologiyalarini qo'llaydi. Bunday holda, xizmat ko'rsatish tarmog'i olomonning donoligidan va insonning tabiiy moyilligi va ma'lumot almashish, hamkorlik qilish va umumiyliz manfaatlar va maqsadlarga ega bo'lgan jamoalarda o'zini o'zi tashkil qilish istagidan foydalanish uchun mo'ljallangan. Biznesda hamkorlikning ahamiyati aniq tan olinadi, lekin bu qobiliyatga ko'pincha qattiq tashkiliy chegaralar va parchalangan axborot tizimlari to'sqinlik qiladi. Xizmat ko'rsatish tarmog'i korxonalarga zamonaviy tashkiliy tuzilmalar va tizimlarning cheklovlariga qaramay, ommaviy hamkorlikning afzalliklarini amalga oshirish imkonini beradi. Xizmat ko'rsatish tarmog'i atamasi akademiya, biznes hamda hukumatni qamrab olgan xizmat ko'rsatish innovatsion tashabbuslari kontekstida tobora ko'proq foydalanilmoqda.

1-fevral holatiga ko'ra xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkiloytlarning iqtisodiy faoliyati turlari bo'yicha tuzilmasi %

Xizmat ko'rsatish sohasi bugun butun dunyoda eng serdaromad tarmoq



hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda mazkur yo'nalishda tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan tashabbuskorlarni kredit mablag'lari bilan ta'minlashda moliya muassasalari muhim o'rinn tutmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlashda eng katta zaxiralardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 36,3 foizni, sohada band bo'lganlar soni esa 50,1 foizni tashkil etadi. Hozir respublikamizda mazkur sohada ish o'rirlari yaratish bo'yicha katta imkoniyatlar bor. Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha joriy yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar yuzasidan 22-aprel kuni o'tkazilgan videoelektor yig'ilishida Prezidentimiz bu masalaga alohida e'tibor qaratib, hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi. Aytish joizki, bu sohada har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, xizmatlarni kengaytirish, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalar va namunaviy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi metodologiya yaratish ham g'oyat muhimdir. Bu jarayonda O'zbekiston milliy banki huzurida xizmatlarni

rivojlantirish bo'yicha loyiha-tahliliy markazi tashkil etilib, barcha viloyatlardagi filiallarida uning bo'limlari ochilishi ayni muddao bo'ldi. Endi ularda aholiga namunaviy tayyor biznes loyihalari taqdim etilib, kasbga o'qitishdan biznesni yo'lga qo'yishgacha bo'lgan kompleks xizmatlar ko'rsatiladi. Davlatimiz rahbari qaysi yo'nalishda bo'lmasin mutasaddilarga topshiriq berishdan oldin hamma sharoitni yaratib, zarur mablag'largacha ta'minlab beradi. Xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi: ".....hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinalarini yaratish". Xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylantirish istiqbollari ko'p jihatdan ushbu sohada tadbirkorlik faoliyatini, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Chunki xizmatlar, asosan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladi.O'tkazilgan tizimli islohotlarning samarasi o'laroq, mamlakatimiz YaIMi tarkibida 1990-2022 yillar mobaynida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 33,8 foizdan 41,5 foizgacha ko'payganligi, shuningdek iqtisodiyotda band bo'lgan aholining umumiyligi sonida xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgan aholi ulushining 35,6 foizdan 50,5 foizgacha oshganligi 78 diqqatga sazovordir. Shu bilan birga o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasini tadbirkorlik, ayniqsa kichik va xususiy tadbirkorlik salohiyati hamda zahiralaridan samarali foydalangan holda keng rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligini ko'rsatdi. Hozirgi davrda xizmat ko'rsatish sohasida yuz berayotgan o'zgarishlardan sohada kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining son jihatidan biri ko'payishi va faoliyat turlari jihatidan kengayishi hisoblanadi. Buning sababi, bir tomonidan, xizmat ko'rsatish sohasi obyektiv va subyektiv omillar ta'siridan kelib chiqqan holda, kichik va xususiy biznes faoliyati uchun juda jozibador bo'lib hisoblanadi. Ikkinci tomonidan, respublikamizda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi va shu sababli yuqori sur'atlarda rivojlanishi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasida kichik va xususiy

tadbirkorlikning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sohada raqobatning kuchayishiga, xizmatlar turlarining ko'payishi va sifatining yaxshilanishiga va eng muhim xizmatlar narxining pasayishiga va ularga talabning oshishiga hamda keng xalq ommasining xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari oshishiga va nihoyat, xizmat ko'rsatish sohasi faoliyati samaradorligining oshishiga yordam beradi. Kichik korxonalar bozordagi talab o'zgarishlariga tez moslasha oladi, xizmat turlarini tez o'zgartirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni qisqa muddatda va katta yo'qotishlarsiz o'zgartirish imkoniga ega bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining kichik va xususiy shakllarini rivojlantirish iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridan farqli o'laroq kamroq mehnat va dastlabki bosqichlarda nisbatan kam kapital qo'yilmalar talab qilishligi bilan ham izohlanadi. Unga boshqaruv tizimining yengilligi, ayrim bozorda u yoki bu xizmatga talabning darajasi to'g'risida yaxshi xabardorlik va boshqalar xosdir.

Xuylosa: Xizmat ko'rsatish — aholi bandligini ta'minlash, yangi ish o'rirlari yaratishda katta salohiyatga ega soha. Joylardagi aholi daromadlarining real o'sishini ham, avvalo xizmatlar rivojidan yaqqol ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan biz asosiy e'tiborni xizmatlar sohasini rivojlantirishga va iqtisodiyot tarkibida uning rolini kuchaytirishga qaratamiz. Ushbu soha nafaqat, ayniqsa, qishloq joylarida ish o'rinalarini ta'minlashga, balki aholi daromadlarini oshirishga qodir. Kichik tadbirkorlikning ushbu afzalliklaridan foydalangan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari moddiy ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan ko'proq raqobatbardosh hisoblanadilar. Kichik tadbirkorlikning rivojlanganligi xizmat ko'rsatish sohasi yuqori daromadliligineng eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasida 2022 yilda xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarida 283 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar mavjud. barcha kichik korxonalar va mikrofirmalarning 61,2 foizga yaqinini tashkil etadi. 79 Ushbu holat respublikamizda kichik iqtisodiyot sektori amalda yaratilgan hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishi xizmatlar sohasining jadal rivojlanishini ta'minlamoqda, deb xulosa qilib aytsak bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonov K.X. Labor Economics (Textbook). T.: Mehnat, 2004. - p.397.
2. Burmenko T.D. Ekonomika sfery uslug (Vvodnyy kurs) / T.D.Burmenko. - Irkutsk: Izd-vo BGUEP, 2004.
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 of February 7, 2017 "On the strategy of actions for further development of the Republic of Uzbekistan", Annex 1, paragraph 3.2.
4. Burmenko T.D. Service sector: economics: textbook / Etc. Burmenko, N.N. Danilenko, T. A. Turenko; edited by T.D. Burmenko. - Moscow: KNORUS, 2007.
5. Vesnin V.R. Personnel management. Theory and practice. - Moscow: Prospekt, 2011
- 7.Wynstra, F., Spring, M., & Schoenherr, T. (Forthcoming). Service Triads: A Research Agenda for Buyer-Supplier-Customer Triads in Business Services. Journal of Operations Management.
8. Holcomb, T. R., & Hitt, M. A. (2007). Toward a Model of Strategic Outsourcing. Journal of Operations Management, 25(2), 464-481
9. "Succeeding through Service Innovation". Cambridge Service Science, Management and Engineering Symposium. 2007-07-14. Archived from the original on 2016-04-
10. https://web.archive.org/web/20160413173811/http://www.ifm.eng.cam.ac.uk/ssme/documents/ssme_discussion_final.pdf/.
- 11 „Service Systems Engineering“. Michigan Technological University.
12. „Hillary Clinton's Innovation Agenda“. 2008-yil 27-martda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2022-yil 3-sentyabr.
13. „Service Innovation: The Next Big Thing“.
14. „Missouri State University Introduces New Degree in IT Service Management“.
15. Toshkent shahar statistika boshqarmasi 2020.yanvar

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 yil 1-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi 2019 yil 7 martdagi PQ-4231-son Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi 2019 yil 13 avgustdagi PF-5780-son Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 22 aprel kuni hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi materiallari. <https://iiv.uz/news/xizmat-korsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi>.

20 O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti. Kirish yo'li: www.stat.uz.